



**MUHAMMAD YUSUF IJODIDA INDIVIDUAL USLUB VA UNING
IFODALANISHI**

*Namangan davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti O'zbek tili va
Adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich
UZB- CU-25 Talabasi*

Erkinjonova Gulsanam
*Filologiya Fanlari bo'yicha
Falsafa doktori (PhD)
Irodaxon Ibragimova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Yusuf ijodida berilgan obrazlar, badiiy tasvir vositalariva ularning ifodalanishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Shoir, ijodkor, mahorat, lingvopoetika, o'xshatish, takrorlar, mubolag'a.

Muhammad Yusuf ijodining individualligi va o'ziga xosligi uning she'rlarida kuchli emotsionallik, xalqchillik, soddalik uyg'unligidadir. Individual uslubi falsafiy, murakkab, tushunarli bo'lmagan, noaniq tushunchalarni ham oddiy xalq tilida, biroq juda ham tushunarli tarzda badiiy mahorat bilan ifoda etishi boshqa ijodkorlar uslubidan yaqqol ajrab turadi.

Shoir uslubi xalqonaligi she'rlarida chetdan kelgan yoki rasmiy, ilmiy, badiiy uslubda foydalaniladigan so'zlardan emas, oddiy so'zlashuv uslubidagi so'zlardan unumli va samarali foydalanishida namoyon bo'ladi. Shuning bilan birga shoir har bir she'rida maqol va iboralardan foydalanib, she'rxonlarga tez yetib borishi oson tushunilishi va yod olinishiga yordam beradi. Shoir ijodidagi soddalik va xalqchillikni: "Hayotda jimjimador balandparvoz so'zlarni yomon ko'raman. So'zni borligicha ifoda etsam deyman. Uning ustidan bo'yoq surkash mutlaqo ortiqcha. Qanday so'z bo'lmasin, o'rnida ishlatilsa, soddalik va ravonlik o'z-o'zidan paydo bo'ladi. To'g'ri so'zlarni bezab haddan tashqari go'zal qilish mumkin, lekin, ota-onangiz tushunmasa nima keragi bor. Men shunday deb o'ylayman" – deya ta'kidlaydi.⁸

Muhammad Yusuf samimiyluk ko'rinib turuvchi teran dunyoqarash egasi edi. Shu o'rinda shoirning ushbu misralariga e'tibor qaratamiz.

*Ey menga ertaklar so'ylagan Zamin,
Ergashib izingdan qolmasman sening.
O'zgalar nazdida bog'i eramning*

⁸ <https://jdpu.uz/muhammad-yusuf-lirikasida-xalqona-uslub-va-oziga-xoslik/>



*Jiydang yaprog'iga olmasman sening.
Vatan, qayda bo'lmay sen hamrohimsan,
Bobolarim yotar sajdagohimsan.*

Ana shunday oddiy misralar insonning yurak-yuragiga kirib, qalbning nozik tolalarini chertib, to'liqlantirib, o'z Vataniga bo'lgan cheksiz, takrorlanmas, tuganmas muhabbatni bildiradiki, olamda eng go'zal deb bilingan Eram bog'larini oddiy jiyda yaprog'iga alishmaydi. She'rlarini o'qir ekanmiz "Vatan" mavzusi mavhum tushuncha emas, balki jonli qadrdon siymo sifatida ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi, shu bilan birga shoir o'zbekona qadriyatlar, milliy urf-odatlar va ajdodlarini yodini badiiy obrazlar orqali mahorat bilan tasvirlaydi. She'rlarini o'qir ekanmiz har biri oddiy xalqona tilda yozilgan bo'lsa ham, bir olam ma'no kasb etishini anglab yetamiz.

"Muhammad Yusuf degan shoir she'riyatga qanday kirib kelganini adabiyotimiz sezmay ham qoldi. Ammo u tezda hammani hayron qoldirib og'izga tushib ketdi. Uning ijodi haqida gap ketganda, ko'pincha qo'shiqlarini tilga oladilar. U qo'shiq yozgan ham, o'zini qo'shiqchi hisonlagan ham emas. Uning yozganlari nihoyatda dolzarb, juda jiddiy ammo xalq tiliga juda yaqin va ravon tilda yozilgan. Shuning uchun, hofizlar ularni qo'shiqqa solib yubordilar. Bu qo'shiqlar qo'shiqchilikni ham baland pog'onalariga olib chiqdi. Qancha-qancha hofizlarni ekga tanitdi. Muhammad Yusufning she'rlari bir qarashda juda sodda, jo'n yoziladiganga o'xshash tuyuladi. Ammo unga o'shatib, yozib ko'ring-chi ? Qo'lingizdan kelmaydi! Uning oson yoziladiganga o'xshab ko'rinadigan misralari muxlislarini yig'latadi, kuldiradi, o'z og'ushiga tortib oladi. Odamlar uning she'rlarini hayajonsiz o'qimaydigan, kitoblarini do'konlardan qidirib yuradigan bo'ldilar. "- deya "O'zbekiston qahramoni" Ozod Sharafiddinov Muhammad Yusuf haqida ajoyib fikrlarni bildiradi. Ijodkor haqida bildirilgan bu fikrlar bejiz emas. Albatta, Muhammad Yusuf ijodi takrorlanmas va go'zaldir.

Muhammad Yusufning individual usluning eng muhim qirrasini – bu samimiylikdir. U dabdabali so'zlardan foydalanib fikrini boyitmaydi. U insonning nozik ichki kechinmalarini bo'yamay-bejamay boricha sodda va oddiy holatda ifodalab beradi Masalan yozuvchining "O'zbek" sherini olaylik.

*Sen paxta terarding yetti bukilib,
Paykalingda eding, ey onajonim.
O'zbekmisiz, deya g'alati kulib,
Mendan so'rab qoldi g'alati xonim.*

Ushbu misralarda shoir hech qanday badiiy o'xshatishlardan foydalanmagan. Borini xalqchil tarzda, tushunarli oddiy holatda aytib o'tgan xolos. Lekin ushbu misralarda chuqur ma'no bor. She'r misralari orqali Muhammad Yusuf o'zbek onalarining matonati, g'ayrati, mehnatdan



qochmasligini go‘zal misralar orqali tasvirlab bergan. Bundan ko‘rinib turibdiki shoir tasviriy vositalardan o‘rinli va o‘ziga xos tarzda foydalanangan. U tabiat manzaralarini inson ruhiyati bilan bog‘lab tasvirlagan. Masalan, daraxtlarni insondek his etib “mag‘rur turar qaddin g‘oz tutib” deb takidlagan she‘rlari ham bor. Shuning bilan birga she‘riy ohangdorlikni oshirish va fikrni ta’kidlash uchun so‘z yoki satr takrorlaridan ham mahorat bilan foydalangan. Bunga misol qilib, manashu “O‘zbek sher”ini olishimiz ham mumkin. She‘rning har bir bo‘g‘ini ohirida “O‘zbekmisiz, deya g‘alati kulib, Mendan so‘rab qoldi g‘alati xonim.” misralarini takrorlab she‘rga ta’sirlilik va badiiy obraz baxsh etadi. Muhammad Yusuf ijodida an‘anaviy mavzular bilan bir qatorda zamonaviy hayot muammolari, inson ruhiyatining chuqur qatlamlari ham yoritilgan.

Shoir she‘riyati tasodifiy o‘xshatishlarga tashbehlarga boy. Biz uchun odatiy hol bo‘lib qolgan voqea-hodisalardan ham kutilmagan tashbehtar kashf eta olgan. Masalan, yuzning hilolga yanoqlarni lolaga o‘xshatilishi juda chiroyli chiqqan.

*Yashirib ne qildim sizlardan,
Lola yanoq, hilol yuzlardan.
To‘ydim tillabarmoq qizlardan,
Qo‘li qadoqlarni sog‘indim
 (“Sog‘indim”)
Yotar qurib darmoni,
Mangu uxlar gul yanoq.
Ko‘ngli to‘la armoni,
Qo‘yni to‘la qizg‘aldoq.*

(“Uyqudagi qiz”)

Muhammad Yusuf ijodida yuksak darajadagi poetizmlarni yuzaga keltirishda jonlantirish usuli ham alohida o‘rin tutadi. Jonlantirish asosida uchta eng muhim komponent: tasvirlanayotgan obyekt, inson va insonga xos bo‘lgan xatti-harakatlar yotadi. Shunga ko‘ra bu usul qo‘llanganda tasvir obyektini bo‘rttiriladi, qavartiriladi, unga xos bo‘lgan belgi-hususiylar yorqin va ravshan qilib tasvirlanadi.⁹ Shoir esa bunday tasvir vositalarining zargari hisoblanadi.

*Ko‘nglim ayvonida kuz hushtak chalar,
Ko‘zimdan yosh bo‘lib oqadi yaproq.
Bahorda ko‘p og‘ir,*

⁹

<https://jdpu.uz/muhammad-yusuf-lirikasida-xalqona-uslub-va-oziga-xoslik/>



*Qiqirlab tursa
Tizzangga suykali b lolaqizg'aldoq.
Yalang'och novdalar pichirlab tursa,
Kuzda, sukunatga cho'kkanda chorbog'.
("Bahorda")*

Shoir ushbu misralarda "yaproqlarni ko'zyoshi bo'lib to'kilishi"ni- ayriliqqa, "yalang'och novdalarning pichirlashi"ni- kishining kelishiga, "kuzning yig'lashi"ni- yomg'irlar yo'ishiga o'xshatgan. Shoir tafakkurining, hayot dunyosining juda chiroyli manzaralari - lingvopoetikning yorqin namunalaridir. Bu kabi timsollar boshqa ijodkorlarning she'riyatida kamdan-kam uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusuf badiiy tasvirlarni kuchaydtirish, obrazni bo'rttirish, hayajonni oshirish, mubolag'a borasida hammadan ham ham malakali bo'lgan. Shoir she'rlarida asosan takrorlardan foydalangani ham she'rlariga o'ziga xos jozivba baxsh etgan. Muhammad Yusuf takrorlardan turli o'rinlarda, she'r misralarining boshi, o'rtasi va ohirida foydalangan. Shu sababli uning ijodi qolgan shoirlar ijodidan tubdan farq qiladi. Har bir she'rida chuqur ma'no bo'lib, o'qigan har bir insonni tafakkur etishga chorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida.- Toshkent: "Sharq", 2014, 6-bet.
2. "Muhammad Yusuf sara she'rlar" to'plami 2026-yil 16-yanvar asl nusxa
3. Muhammad Yusuf. "Ko'nglimdagi yor". Toshkent: G'afur g'ulom nomidagi NMIU, 2001.
4. Ko'nglimda bir yor: she'rlar/ Muhammad Yusuf.-Toshkent: "Nurafshon-kitob-ta'minot",2021.-48b.